

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA SUD TIZIMIDA AMALGA
OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR****Topildiyeva Muyassar Raximjonovna***Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Tarix fakulteti
O'zbekiston eng yangi tarixi kafedrasи katta o'qituvchisi***Tursunova Nargiza Sardor qizi***Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU
Tarix fakulteti magistranti Tursunova*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda sud tizimida amalga oshirilayotgan bir qator muhim islohotlar shu jumladan sud-huquq tizimi idagi yangiliklar va Sud - zimmasiga davlat hokimiyatining bo'g'inlaridan biri - Sud hokimiyatini amalga oshirish yuklangan organ ekanligi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *Sud hokimiyati, demokratik islohotlar, huquqiy, demokratik, siyosiy-huquqiy tahlil*

KIRISH

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishi bilan sud-huquq tizimini isloh qilish borasida bir qator vazifalar belgilab olindi. Konstitutsiyada belgilab berilgan hokimiyatlar bo'linishi tamoyili biriktirildi. Sudlarning faoliyatini qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolat, fuqarolarning tinchligi va o'zaro totuvligini ta'minlashga qaratish ko'zda tutilgandi.

Sud hokimiyatining tuzilishi asosi O'zbekistonning 1993 yil 2 sentabrda «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni orqali yaratib berildi. Konstitutsiyaviy sud tizimi esa ilk bora qonunchilikda nazarda tutilib, Konstitutsiyaning 108-moddasida O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat hokimiyatining aktlari Konstitutsiyaga mosligini ko'rib chiqishi belgilandi.

ASOSIY QISM

O'zbekistonda 2016 yilning ikkinchi yarmidan boshlab yangi siyosiy-huquqiy islohotlar yo'lga qo'yildi. Ijtimoiy, huquqiy, demokratik va dunyoviy davlatchilik yo'lidagi yangi bosqich sifatida ayni jarayonda inson qadri, manfaati uchun xizmat qiladigan islohotlar ustuvor vazifaga aylandi. Bu, o'z navbatida, davlatimiz hozirgi o'ta qiyin sharoitda xalqaro munosabat sub'ektiga aylanishi, o'z hududiy yaxlitligi, suverenitetini himoyalashning zamonaviy mexanizmiga ega bo'lishini ta'minladi. Ayniqsa sud-huquq sohasidagi islohotlar mutlaq zamonaviy mezon asosida, jumladan, odil sudlovda ochiqlik, jamoatchilik mexanizmi qo'llanishi, sud hukmi qabul qilinishida insonparvarlik tamoyili namoyon bo'lishi ko'rinishida siyosiy-huquqiy siyosatning kun tartibiga aylanib, tobora muntazamlik kasb etmoqda.

Odil sudlov natijasida insonning huquqi va erkinligi himoyasi ta'minlanmoqda. Xususan, sudlanuvchi tomonidan qonun buzilishi holatiga yo'l qo'yilgani to'liq isbotanib, muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilinishi muqarrar bir holatda yangi qonunchiligidizning insonparvarlik tamoyiliga ustunlik berildi.

Siyosiy-huquqiy tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, davlatimiz rahbarining asosiy diqqati sud faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Zero, inson taqdiri ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalari o'zaro bog'liqligi, ya'ni tizimli faoliyat yuritishiga bevosita daxldor masala. Mamlakatimizning 2022-2026 yillar uchun mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida sud jarayonida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyilini ro'yobga chiqarish, fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadi ham belgilangan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 noyabr kuni odil sudlovnii ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda keltirgan ma'lumotlari, fikr-mulohazalari konseptual-strategik ahamiyatga ega. 2016 yildan buyon sud mustaqilligini mustahkamlash, jinoiy ishlarni ko'rishda xolislik, adolat va qonuniylikni ta'minlash maqsadida siyosiy huquqiy islohotning so'nggi olti yilda tizimga oid 50 dan ortiq qonun, farmon va qaror qabul qilindi. Shu davrda nohaq ayblangan to'rt ming kishiga oqlov hukmi chiqarildi, 26 mingdan ziyod shaxs sud zalidan ozod qilindi, 47 ming fuqaroga nisbatan tergovda qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarildi.

Shu bois Prezident yig'ilishda sudsarda tortishuv muhitini shakllantirish, huquq-tartibot idoralari ishini takomillashtirish bo'yicha tegishli ko'rsatma berdi. Davlat rahbari tahliliga ko'ra, har yili o'rtacha bir million besh yuz ming aholi sudga murojaat qilmoqda. Yil boshidan viloyat sudi qabul qilgan qarordan norozi 18 ming fuqaro Oliy sudga murojaat qilgan.

Sudyalar hamjamiyati vakolatini kuchaytirish, sudyalar sonini bosqichma-bosqich ko'paytirish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, davlatimiz rahbari sohada raqamlashtirish ko'lamini kengaytirib, axborot tizimini uyg'unlashtirish, zamonaviy texnologiya orqali odamlarga qo'shimcha qulaylik yaratish vazifasini qo'ydi.

Demak, birinchidan, Buxoroda ko'rilgan jinoyat ishida ayblanuvchilar qilmishi to'liq isbothandi. Ochiq sudda ayblovchilar, himoyachilarining o'zaro keskin tortishuviga imkon berilgani yurtimizda olib borilayotgan "Hamma narsa inson uchun, inson qadri uchun" tamoyili, kechirimplilik siyosati namunasidir.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ham jinoyat, jinoyat protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jazoni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish ko'rsatib o'tilgan. Shu munosabat bilan "Qoraqalpoq voqealari"ga aloqador shaxslarga nisbatan qonun doirasida og'ir jazo tayinlanishi sud jarayonida to'liq tasdiqlangan bo'lsa-da, sudlanuvchilarga jazo insonparvarlik tamoyili asosida tayinlandi.

Uchinchidan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlarning dastlabki natijasi yaqqol namoyon bo'ldi. Endi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, yangi davrga mos yangi o'zgarishlarni amalga oshirish muhim vazifa bo'lib kolmoqda.

Fikrimizcha, bu jarayon davlatchiligidan qanday rivojlanganini ko'rsatib, jamiyatimizni xalqaro miqyosda o'ziga xos, jiddiy sinovdan o'tkazdi. Gap shundaki, O'zbekiston konstruktiv, ochiq siyosati tufayli mintaqaning mas'uliyatli davlati sifatida tan olinmoqda. Mamlakatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqealar xorijiy mamlakatlar tomonidan diqqat bilan kuzatib boriladi. Bu borada o'ziga xos munosabat bildiriladi. Jumladan, Qoraqalpog'istondagi voqealar bo'yicha tergov va sud jarayoni ham hamkor davlatlar, yaqin va uzoq qo'shni hamda rivojlangan davlatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan alohida e'tibor bilan kuzatib borildi.

Bu boradagi fikrlar ochiq ayttilmoqda. Jumladan, Qoraqalpog'istonda sodir bo'lgan fojiali voqealar bilan bog'liq harakatda ayblangan 22 kishiga oid sud nihoyasiga yetar ekan, AQSh elchixonasi hukumatni "jamoatchilik shaffofligi bo'yicha majburiyatini bajarishga, O'zbekiston qonunchiligini buzgan xavfsizlik kuchlarining har qanday xodimini javobgarlikka tortishga chaqirishda davom etadi", deya bayonot berdi.

Qo'shma Shtatlar sud jarayoni boshlanishidan ikki oycha avval "Biz hukumatni jamoatchilikka ochiqlikni ta'minlash bo'yicha majburiyatni bajarish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlarini ham javobgarlikka tortishga chaqiramiz", dedi. Diplomatik missiya AQSh davlati nomidan, shuningdek, Ombudsman boshchilik qilayotgan tergov komissiyasi xulosasini imkon qadar tezroq e'lon qilishga chaqirdi.

Xususan, “Human Rights Watch” xalqaro inson huquqini himoya qilish tashkiloti O’zbekistonni Nukus voqeasida bo’lgani kabi o’lim va og’ir jarohatlar oldini olish maqsadida olomonni nazorat qilish uchun shovqin va tutun chiqaruvchi granata qo’llash tartibini zudlik bilan qayta ko’rib chiqishga, shunday harakatga yo’l qo’yanlarni tizimdan chetlashtirishga chaqirgan edi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqining Toshkentdagi delegatsiyasi bayonotida YeI Qoraqalpog’istondagi fojiali voqeaga aloqadorlikda ayblangan 22 shaxs ustidan Buxoroda davom etayotgan sud jarayonini diqqat bilan kuzatib bormoqda, deya ta’kidlandi. YeI O’zbekiston hukumatiga “jarayonni jamoatchilik, jumladan, ommaviy axborot vositalari uchun ochiq va shaffof o’tkazgani hamda to‘g’ridan-to‘g’ri translyatsiyani ta’minlagani uchun” minnatdorlik bildirdi. Sud jarayoni “adolatli, xolis” kechishiga umid bildirdi.

— Biz hukumatni “fikrni erkin izhor qilish, erkin yig‘ilish o’tkazish bo‘yicha, jumladan, GSP+ doirasidagi majburiyatni bajarish”ga chaqiramiz, — deyilgan edi bayonotda. — Shuningdek, Qoraqalpog’istondagi voqealar bo‘yicha tergov komissiyasi ishi natijasini yaqin kunlarda olishni sabrsizlik bilan kutyapmiz. Natija jamoatchilikka e’lon qilinishidan umidvormiz.

Shunday qilib, Qoraqalpog’istondagi voqealarga aloqador shaxslarga nisbatan sud hukmi bilan JK 55-Jazoni yengillashtiruvchi holatlar, 57-Yengilroq. jazo tayinlash, 12-Shartli hukm qilish, 74-Jazoni yengilrog’i bilan almashtirish moddalari qo’llanishi, eng avvalo, davlat rahbari tashabbusi natijasi bo’lsa, qolaversa, xalqaro hamjamiyat fikri ham inobatga olingan, deb hisoblash mumkin.

Shuni alohida ta’kidlamoqchimizki, mazkur jarayon O’zbekiston demokratik qadriyatlar asosida rivojlanib borayotganining amaldagi ifodasidir. Zamona viy davlatchiligidagi bu yangi tendensiyani, ya’ni insonning qadri joyiga qo’yiladigan, manfaati birinchi o’rinda turadigan odil sudlov barqarorligini yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o’z navbatida fuqarolarimizning g’ururi va mas`uliyatini, davlatga ishonchini oshiradi.

Ayni jarayon davlatimiz ijtimoiy-siyosiy vaziyatni to‘liq, xotirjam nazorat qilib borishini ko’rsatdi. Vaziyat siyosiylashtirilishiga yo’l qo’yilmadi, sud jarayoni ustidan jamoatchilik nazorati institutini ta’minalash uchun shart-sharoit yaratildi. Bu davlat va jamiyat o’rtasidagi siyosiy-huquqiy munosabatning yangi bosqichdagi qiyofasini belgilab beruvchi muhim omildir.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, hozirgi kunda Yangi O’zbekistonning yangi qiyofasi puxta o’ylangan, aniq maqsadli va strategik islohotlar natijasida jahon maydonida o’z munosib o’rniga ega bo’layotgan davlatlar qatoridadir. Ishonamizki, Yangi O’zbekiston jahon maydonida har qachon ham har tomonlama kuch-qudratli, salohiyatlari va tinch - farovon mamlakatga aylanadi. Shu o’rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek: “Bugungi kunda biz erishgan eng muhim natija ham aslida shu - demokratik islohotlarimizdir”. Qo’shimcha qiladigan bo’lsak, bugungi kunimizni raqamlashtirilgan texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi, shunday ekan nafaqat sud-huquq tizimidagi, balki barcha jabhadagi islohotlar bilan bir qatorda raqamlashtirish ham ma’lum ma’noda keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratadi. Ya’ni, bu orqali sud-huquq sohasini ham anchayin isloh qilish va korruption holatlarni oldini olish ham mumkin. Shu o’rinda mening fikrimcha, Sud sohasi jazolovchi organ emas, inson haq-huquqlarini himoya qiluvchi organga aylantirilishi lozim. Sud jarayonini yanada shaffof va demokratik ruhda olib borilishi uchun esa suda maslahatchilar tarkibiga tegishli tashkilot vakillaridan emas, balki huquqiy sohadan xabari bor bo’lgan ko’ngilli oddiy fuqarolarni ham jalb etish lozim. Buning natijasida suda va ayblanuvchi o’rtasida hech qanday shaxsiy manfaat bo’lmasligi va suda tomonidan qabul qilinadigan qaror yanada adolatli va oqilona bo’lishiga zamin bo’ladi. Shu o’rinda Prezidentimiz

ta'kidlaganlaridek: "Sudyaning ongida – adolat, tilida – haqiqat, dilda esa poklik bo'lishi shart".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" prezident farmoni.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish choratadbirlari to'g'risidagi" farmoni.
4. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar fan-darsligi. (Toshkent-2020).
5. A'zamxonov S.X. TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272> Vol. 1 No. 12 (2022): O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIIY ALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 453-459-bet
6. A'zamxonov S.X. TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106/1058> Vol. 2 No. 22 (2022): IJODKOR O'Q ITUVCHI 381-386-bet
7. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533> Vol. 2 No. 20 (2023): PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS 247-254-bet
8. Azamkhanov Saidabzalkhan. MODERN CONCEPTS OF HUMAN CAPITA MEASUREMENT <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527> <https://zenodo.org/records/8003552#.ZHzkDnZByUk> Том. 11 № 5 (2023 г.): ФИДЖЕШ 2163-2169-bet
9. A'zamxonov Saidabzalxon Xasanboy o'g'li. (2023). TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLISHINI SHAKLIANTIRISH OMILLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8413744> 200-205-bet
10. Azamkhanov Saidabzalkhan Hasanboy ogli. (2023). INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS AS A FACTOR FOR IMPROVING THE QUALITY OF PROFESSIONAL TRAINING. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8413789> 102-108-bet
11. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси/“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Ташкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>
12. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. - 2021. - T. 8. - №. 5. - C. 469-473.
13. Isropilov m. b. the role of pr technologies in ensuring the sustainable development of society //Open Access Repository. - 2023. - T. 4. - №. 2. - C. 729-735.
14. Akhmedova F. Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan-Eastern European Scientific Journal, 2018